

BOLALAR VA O'SMIRLARDAGI XALQUM KANDIDOZINI DAVOLASH

Jalolova Nigina Mehriddinovna
Zarmed Universiteti

Ilmiy ishning maqsadi. Bolalar va o'smirlarda og'iz halqum shilliq qavati kandidozini davolash effektivligini oshirish.

Material hajmi. 2 yoshdan 15 yoshgacha (o'rtacha 5,2 yosh) bo'lgan 77 ta bola nazoratda bo'ldi. Ulardan 45 ta o'g'il, 32 ta qiz bola.

Tekshirish usullari. Og'iz xalqum shilliq qavati mikotik zararlanish bor, ya'ni tana harorati yuqori bo'lmagan, tanglay murtaklari yuzasidagi oqish karash bo'lgan bemorlarga Tantum Verde vositasini qo'llab nazorat qildik. Davolanishdan avval va 7 kundan so'ng tanglay murtaklari yuzasidan surtma olib, mikrobiologik tekshirish.

Olingan natija. Faringoskopik tekshiruv o'tkazilganida 73 ta bola (94,8%)da tanglay murtaklari yuzasidagi karash yo'qolganligi kuzatiladi. Mikrobiologik tekshiruvda davodan avval Candida avlodi zamburug'lari 61 bolada (79,2%) chiqdi. Shundan *C.albicans* 48 (78,6%), *C.srusei* 7 (11,5%), *C.parapsylosis* 4 (6,6%), *C.zylonoides* 2 (2,3%) nafar bolada chiqdi. Davo kursi tugagandan so'ng tanglay murtaklari yuzasi surtmasidan Candida avlodi zamburug'lari 5 nafar (8,2%) bolada chiqdi.

Xulosa. Tantum Verde vositasi halqumdagi zamburug'li kasalliklarda yuqori terapevtik effektivlikka ega ekanligi ma'lum bo'ldi.